

**DOSTONCHILIK SAN’ATINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Matnazarova Barshinay Ongarbay qizi**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika-psixologiya va ijodiy ta’lim fakulteti Musiqa  
ta’limi yo’nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va boy merosi hisoblangan dostonchilik san’atini o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari, interaktiv platformalar, shuningdek, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari, afzalliklari hamda amaliy tavsiyalar tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Dostonchilik, baxshichilik san’ati, multimedia, dars samaradorligi, interaktiv metodlar, xalq og‘zaki ijodi, raqamli pedagogika.*

Bugungi globallashuv va keskin axborotlashuv asrida yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish va ularda milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat hissini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodiyotining eng yirik janri bo‘lgan dostonlar esa xalqimizning o‘tmishi, falsafasi, mardlik va vatanparvarlik g‘oyalari o‘zida mujassam etgan bebaho ma’naviy merosdir.

Ammo, an’anaviy ta’lim usullari orqali xalq dostonlarining o‘ziga xos murakkab poetik tili, lirik chekinishlari hamda ulkan hajmini bugungi raqamli texnologiyalar qurshovida o‘sayotgan yoshlar ongiga singdirish esa, hozirgi paytta birmuncha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bu muammoni bartaraf etishning eng maqbul va zamonaviy yo‘li esa dostonchilik san’atini o‘qitish jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimli ravishda integratsiya qilish qiziqarli bo‘lishini ham ta’minlaydi.

O‘quv dasturlarida dostonlarni o‘rganishga ma’lum soatlar ajratilgan bo‘lsada, ko‘p hollarda darslar faqat matn o‘qish va uni tahlil qilish bilan cheklanib qolmoqda. Dostonchilik san’ati esa faqatgina yozma matn emas, balki musiqa, aktyorlik mahorati va jonli ijro translyatsiyasi sintezidan iborat sinkretik san’at turidir. Akademik T.Mirzaev ta’kidlaganidek, xalq dostonlari jonli ijro sharoitidagina o‘zining to‘liq estetik quvvatini namoyon qila oladi. Faqatgina darsliklardagi quruq matn orqali o‘quvchida dostonning haqiqiy jozibasini, baxshining mahoratini va doston muhitini tasavvur qilish imkoniyati juda cheklangan. Dars jarayonidagi vizualizatsiya va audio elementlarning yetishmasligi esa o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi.

Taniqli metodist olim Q.Yo‘ldoshev “Adabiy ta’lim o‘quvchining his-tuyg‘ularini uyg‘otishi, uni hayajonga solishi kerak. Buning uchun darsda barcha hissiyot a’zolariga ta’sir etuvchi vositalardan foydalanish zarur”,-deb yozgan. Shu bois, dostonchilikni zamonaviy metodlar va AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb muammolaridan biridir.

Dostonchilik san’atini o’qitishda AKT imkoniyatlarini bir necha bosqichda va turli pedagogik texnologiyalar asosida dasrga tatbiq etish lozim. Ya’ni darsning kirish yoki eng yuqori hayajonli qismlarida mashhur o’zbek baxshilari ijrosidagi audio va video yozuvlardan foydalanish lozim. O’quvchilarga Alpomishning Boysundan safarga otlanishi yoki yov bilan jangi tasvirlangan qism matni o’qib berilgach, darhol ushbu qismning baxshi ijrosidagi video yoki audio varianti 2-3 daqiqa davomida namoyish etiladi. Bu esa o’quvchida ohang, ritm va dutor sadosi orqali estetik hissiyot uyg’otadi.

Dostonlar syujeti ko’pincha real geografik joylar bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, “Alpomish” dostonida Boysun, Qo’ng’iroq, Jizzax asirlar saqlanadigan ko’hna qal’alar tilga olinadi. Virtual xaritalar va Geo-axborot texnologiyalaridan foydalanishda esa Google Earth yoki elektron interaktiv xaritalar yordamida dars davomida o’sha hududlarning tabiati, tog’lari va tarixiy obidalari onlayn tarzda ko’rsatiladi. Bu esa o’quvchida voqealar sodir bo’lgan makon haqida tasavvur hosil qiladi hamda dostonning tarixiy asosga ega ekaniga ishonchini yanada orttiradi.

Dars oxirida esa raqamli interaktiv testlar va o’yinlashtirishdan foydalanish orqali o’quvchilarning doston syujetini qay darajada o’zlashtirishganini tekshirish uchun an’anaviy qog’oz testlardan voz kechib, raqamli o’yin texnologiyalaridan foydalanish dars jarayonining qiziqli o’tishida yuqori samara beradi. Kahoot, Quizizz yoki Wordwall platformalarida “Doston qahramonini top”, “Eski o’zbek so’zlarining lug’atdagi ma’nosini aniqla” kabi interaktiv test-musobaqalari o’tkaziladi. Bu esa sinfda sog’lom raqobat va o’zaro hamkorlik muhitini ham yaratadi.

Dostonchilik san’atini o’qitishda AKT usullarini qo’llash an’anaviy dars turlariga qaraganda ancha samaraliroq. O’quvchilarning dars davomida faolligi an’anaviy metodikadan foydalanganda passiv eshitish va matn yodlash bilan cheklanib qolardi. AKTga asoslangan metodikani qo’llaganda esa o’quvchilar aktiv ishtirok etuvchi, tahlil va tadqiqot qiluvchiga aylanadi. Vaqtdan foydalanishga kelsak, interaktiv metodlardan foydalanish orqali lug’at so’zlarni tushuntirishga ko’p vaqt sarflamasdan, interaktiv lug’at yordamida vaqtni 20-25% tejash mumkin bo’ladi. Pedagogik tajribalardan kelib chiqib aytish mumkinki, dasrga AKT elementlarining tizimli olib kirilishi o’quvchilarning dostonchilik yo’nalishidagi darslarga bo’lgan umumiy qiziqishlarini sezilarli oshirishga yordam beradi. Eng muhimi esa yoshlarda doston matnidagi eski so’zlarga nisbatan zerikish hissi yo’qolib, lug’at ustida ishlash qiziqarli jarayonga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, dostonchilik san’atini o’qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi bugungi raqamli avlod o’quvchilariga to’liq mos keladi. Bu yondashuv o’tmish bilan kelajakni bog’lovchi ko’prik vazifasini ham o’taydi. Axborot-kommunikatsiya vositalari xalq dostonlarining milliy ruhiyatini va badiiy quvvatini kamaytirmaydi, aksincha, ularni yangicha joziba va dinamika bilan yanada boyitib, yoshlar ongiga tezroq yetib borishini ta’minlaydi.

Mazkur metodikalarni yanasa rivojlantirish maqsadida kelgusida “O’zbek xalq dostonlarining elektron multimedia ensiklopediyasi” ni yaratish, shu bilan birga dostonlar

20-Iyun, 2026-yil

syujeti asosida o‘quvchi yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘yinlar va mobil ilovalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirzaev T “O‘zbek xalq dostonchiligi”.- Toshkent: “Sharq”, 2008.-256 b.
2. Yo‘ldoshev Q “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari”.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.-184 b.
3. Afzalov M “O‘zbek xalq ertaklari va dostonlari haqida”.- Toshkent: “Fan”, 1964.-168 b.
4. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar (pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar).- Toshkent: “Iste’dod”, 2008.- 160 b.

Global  
Science  
Publication